

5/2025,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00079)



IQTISODIYOT SOHALARIDAGI O'QUV FANLARINING INTEGRATSIYASI HAQIDA

Gulbayev Ne'matulla Abdukarimovich

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi "Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrasida dotsenti

Email: n1894013@jmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/718

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyot sohalaridagi o'quv fanlarining integratsiyasi tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o'rni, ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish orqali talabalarda chuqurroq bilim shakllanishi, tanqidiy fikrlash, muammoni kompleks yechish ko'nikmalari rivojlanishi ko'rsatib beriladi. Iqtisodiyot sohalaridagi o'quv fanlarining ichki integratsiyasi "Asosiy nazariy fanlar" misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quv fanlar, integratsiya, ta'lim, bilim, talaba, tizim, jarayon, hayot, ma'lumot, nazariy, fan, bog'liqlik.

ОБ ИНТЕГРАЦИИ УЧЕБНЫХ ДИСЦИПЛИН В ОБЛАСТИ ЭКОНОМИКИ

Гулбаев Нематулла Абдукаримович

Доцент кафедры "Экономика и управление" Академии труда и социальных отношений

Аннотация

В данной статье анализируется понятие интеграции учебных дисциплин в области экономики, ее роль, значение и эффективность в образовательном процессе. Усиливая междисциплинарность, учащиеся демонстрируют более глубокое формирование знаний, развитие критического мышления, навыков комплексного решения проблем. Внутренняя интеграция учебных дисциплин в области экономики была проанализирована на примере "фундаментальных теоретических дисциплин" а также в статье анализируется понятие интеграции учебных дисциплин в экономике, ее роль, значение и эффективность в образовательном процессе.

Ключевые слова: учебные дисциплины, интеграция, образование, знания, студент, система, процесс, жизнь, информация, теория, наука, взаимосвязь.

ABOUT THE INTEGRATION OF ACADEMIC DISCIPLINES IN THE FIELDS OF ECONOMICS

Gulbayev Ne'matulla Abdukarimovich

Associate professor of the Department of Economics and management of the Academy of Labor and social relations. Tashkent, Uzbekistan. n1894013@jmail.com.

Abstract

This article analyzes the concept of integration of academic disciplines in the fields of Economics, its role, importance and effectiveness in the educational process. By strengthening interdisciplinary engagement, students are shown to develop deeper knowledge formation, critical thinking, complex problem solving skills. The internal integration of educational disciplines in the fields of economics is analyzed using the example of “basic theoretical disciplines”. This article analyzes the concept of integration of academic disciplines in the fields of Economics, its role, importance and effectiveness.

Keywords: academic subjects, integration, education, knowledge, student, system, process, life, information, theory, science, interconnection.

Kirish

O‘quv fanlarining integratsiyasi – bu turli o‘quv fanlari orasida aloqa o‘rnatish, ularni o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatish jarayonidir. Integratsiya orqali talabalar bilimni yagona, yaxlit tizim sifatida qabul qiladi, bu esa ularning mavzularni chuqurroq tushunishiga va amaliy qo‘llay olishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ta‘lim tizimida yondashuvlar zamonaviy hayot talablari asosida takomillashib bormoqda. Fanlarning alohida-alohida o‘qitilishi ba‘zan bilimlarning parchalanishiga, real hayotiy vaziyatlarga mos kelmasligiga olib keladi. Shu bois, o‘quv fanlarini integratsiyalash – ya‘ni ular o‘rtasidagi ichki va tashqi bog‘liqlikni ta‘lim jarayonida aks ettirish – bugungi ta‘limda dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Respublikamizda fanlar integratsiyasi (ta‘lim, fan, ishlab chiqarish sohalarining bir-biri bilan uyg‘un ishlashi) bo‘yicha bir qancha qarorlar va hujjatlar ishlab chiqilgan.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida - “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish va fanlar integratsiyasiga e‘tibor qaratilgan va ko‘pgina uchrashuvlardagi nutqlarida ko‘p ta‘kidlagan. Prezident bir nutqida fan va sanoat integratsiyasiga alohida e‘tibor qaratilgan: “Ilm-fan va sanoat integratsiyasi bugun hech qachon bo‘limgandek muhim ahamiyatga ega” deb ta‘kidlab o‘tgan [1].

Asosiy nazariy yondashuvlar: O‘zbek olimlarimizdan iqtisodiyotda ta‘lim va fan integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari (Ilmidin Yormatov, 2024); raqamli iqtisodiyot va integratsiya (Qilichova Marhabo, Raxmonberdiyeva Ozoda) masalalari bilan tadqiqot ishlarinin davom ettirmoqda. Ular tarmoqlararo (ya‘ni “an‘anaviy” iqtisodiy tarmoqlardan tashqari) sohalararo integratsiyani hayotiy misollar asosida ko‘rsatadi. Ammo ta‘lim-o‘quv fanlari aspekti bizning nazarimizda kamroq – asosan iqtisodiy tarmoqlar nazariy jihatdan yoritilgan.

Oliy ta‘lim muassasasida bakalavriyat talabalarining hozirgi raqamli asrning raqamli madaniyatini axborot ta‘lim muhitida shakllantirish jarayonlarida o‘rganilishi zarur bo‘lgan komponentlarni qo‘llay olishi talabalarni raqamli davrga tayyorlash uchun juda muhimligi I.R. Dusbayev, A. Maxmudov, M. Esanov, Sh. Islomovlarning maqolalarida keltirilgan [4,5]. Ushbu komponentlar talabalarga raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, axloqiy xulq-atvor, mas‘uliyatli texnologiyadan foydalanish va umrbod ta‘limning asosiy jihatlarini birgalikda hal

qilishini yoritadi. Kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni raqamli asrda raqobatbardosh kadrlar bo‘lib etishishlari uchun zarur ko‘nikmalar keltirib o‘tilgan.

Talabalarga bilim berishda integratsiya nuqtayi nazaridan o‘qitishni takomillashtirishning ayrim jihatlari taniqli klassik pedagoglar (Y. Komenskiy, D. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalozzi, K. Ushinskiy va boshqalar) asarlarida, shuningdek didaktik olimlar (I. D. Zvereva, M. A. Danilov, S. P. Baranov, N. M. Skatkin), psixolog olimlar (E. N. Kabanova-Meller, N. F. Talizina, yu. A. samarina, G. I. Vergeles), metodist olimlar (M. R. Lvova, V. G. Goretskiy, N. N. Svetlovskaya, yu.M. Kolyagina, G. N. hujumlar va boshqalar) tomonidan qayt qilingan. So‘nggi vaqtlarda Vygotsky L.S. tomonidan integratsiya haqida aytilgan fikrlar alohida o‘rin egallaydi [8]. O‘zbekiston olimlari ham bu sohada kerakli izlanishlarni davom ettirmoqda.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya – bu o‘quv-uslubiy jarayonda talabalarga bir necha fanlarni bir-biriga bog‘lash va ularning o‘zaro aloqalarini kuchaytirishni maqsad qiladi. Bu uslublar o‘quvchilarning tushunchalarini, fikrlarini va mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning ko‘nikmalarini integrativ tarzda yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Bu uslubiy jarayon, talabalar uchun adabiyot, tarix, ona tili va boshqa fanlar orasidagi bog‘lanishni tushunishga imkon beradi va ularning bilimlarini kengaytirishga yordam beradi [3].

Tahliliy jihatlar: fanlararo integratsiyaning kuchli va kuchsiz tomonlari va imkoniyatlarni ko‘rsatdi.

Kuchli tomonlari:

- Integratsiya nazariyasi bo‘yicha yaxshi asos – ta‘lim, ilm-fan, ishlab chiqarish, iqtisodiy tarmoqlar bir-biriga bog‘langani ko‘rsatilgan.

- O‘zbek tilida va O‘zbekiston sharoitida tadqiqotlar mavjud (mos ravishda kontekstga mos).

- Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha o‘quv fanlarini “tarmoqlararo” yondashuv bilan shakllantirish uchun nazariy zamin bor.

Kamchiliklari / rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan jihatlar:

- ko‘pchilik ishlar integratsiyani makro darajada tahlil qiladi – tarmoqlar va sohalar darajasida o‘quv fanlari qanday integratsiyalanishi (ya‘ni darslik, o‘quv-uslubiy majmualar, fanning mazmuni, metodikasi) haqida kamroq.

- tarmoqlararo fan integratsiyasi (masalan, sanoat iqtisodiyoti + axborot texnologiyalari + ta‘lim) jihatlari aniq metodik ko‘rsatkichlari bilan ozroq yoritilgan.

- o‘quv fanlari (pedagogika, metodika) kontekstida integratsiya – qanday darsliklar, qanday modul dizayni, qanday interfaol usullar bilan – kamroq ilmiy tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Integratsiyaning mohiyati: O‘quv fanlarining integratsiyasi – bu ikki yoki undan ortiq fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va uni o‘quv jarayonida uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llashdir. Bu yondashuv orqali talabalar muammolarni bir nechta fanlar prizmasidan ko‘rib chiqishadi, chuqurroq tushuncha hosil qilishadi va real hayotga yaqin bilimga ega bo‘lishadi [5].

Integratsiyaning asosiy maqsadi:

- Fanlar orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish;
- Talabalarni mantiqiy, tizimli fikrlashga o‘rgatish;

- Haqiqiy hayotdagi muammolarni yechishda kompleks yondashuvni rivojlantirish.

Misollar bilan tushuntirish:

1. Matematika + Informatika

- Grafiklar yasashda kompyuter dasturlaridan foydalanish

– Formulalarni dasturlash orqali avtomatik yechim olish


2. Tarix + Adabiyot

- Tarixiy davrni o'rganayotganda o'sha davr yozuvchilarining asarlarini tahlil qilish

3. Biologiya + Kimyo

- Oziq-ovqat hazm bo'lishini kimyoviy jarayon sifatida tushuntirish.

Oliy ta'limda "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari" doirasida o'rganiladigan o'quv fanlari iqtisodiyotning turli yo'nalishlariga, ishlab chiqarish sohasiga, xizmat ko'rsatish tarmoqlariga va makro/mikro iqtisodiy jarayonlarga bog'liq. Umumiy olganda ularni 4 ga ajratishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyot yonalishi fanlari

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohasidagi o'quv fanlarining ichki integratsiyasini "Asosiy nazariy fanlar" asosida tahlil qilamiz.

Asosiy nazariy fanlar: Iqtisodiyot nazariyasi (mikro va makroiqtisodiyot), Iqtisodiy tahlil, Iqtisodiy matematika, Statistika, Buxgalteriya hisobi, Moliya va moliyaviy menejment, Soliq va soliq siyosati, Bank ishi, Iqtisodiy modellashtirish va Iqtisodiy prognozlash va rejalashtirish kabi fanlardan iborat [2].

Iqtisodiyot nazariyasi (mikro va makroiqtisodiyot) fanida Iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda insonlarning ehtiyojlarini qondirish yo'llarini o'rganadi va odamlar, firmalar, hukumatlarning tanlovlari va bu tanlovlarning natijalarini tahlil qiladi. Fanning maqsadlari: cheklangan resurslardan samarali foydalanishni o'rganish; bozor va narxlar tizimini tushuntirish; iqtisodiy qarorlar qabul qilish asoslarini o'rgatish; makroiqtisodiy muammolarni tushuntirish; davlatning iqtisodiyotdagi o'rnini va vazifalarini tahlil qilishdan iborat.

Iqtisodiy tahlil fani – bu iqtisodiyot fanining muhim sohasidan biri bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini chuqur va tizimli o'rganish, ularning moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali samaradorlikni baholash, mavjud muammolarni aniqlash va kelgusidagi qarorlar qabul qilishda asos bo'ladigan takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Iqtisodiy matematika fani – iqtisodiyotdagi muammolarni tahlil qilish va yechish uchun matematik metodlar va modellarni qo'llashga ixtisoslashgan fan. Bu fan iqtisodiy

jarayonlarni aniqlik bilan ifodalash, prognozlash va optimal qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy matematikaning asosiy maqsadi:

- iqtisodiy jarayon va hodisalarni matematik modellar orqali ifodalash;
- tahlil qilish, prognozlash, va optimallashtirish;
- resurslardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish.

Statistika fani – bu ma’lumotlarni yig‘ish, tartibga solish, tahlil qilish, talqin qilish va xulosalar chiqarish bilan shug‘ullanuvchi fan. U turli sohalarda: iqtisodiyot, tibbiyot, ijtimoiy fanlar, texnika, ta’lim va boshqalarda qo‘llaniladi.

Statistikaning asosiy vazifalari:

1. ma’lumotlarni yig‘ish – so‘rovnomalar, tajribalar yoki kuzatuvlar orqali;
2. ma’lumotlarni qayta ishlash – jadval, grafik, diagramma shaklida;
3. tahlil qilish – o‘rtacha qiymat, dispersiya, korrelyatsiya kabi statistik ko‘rsatkichlar yordamida;
4. xulosa chiqarish – kuzatilgan holatlardan umumiy xulosa va qarorlar olish;
5. prognoz qilish – kelajakdagi holatlarni bashorat qilish (masalan: narxlar, aholi soni, iqlim o‘zgarishi va h.k.).

Statistika fanining turlari:

1. Deskriptiv (tasviriy) statistika.
- yig‘ilgan ma’lumotlarni tasvirlaydi;
- jadval, grafik, o‘rtacha qiymatlar, modalar bilan ishlaydi.
2. Inferensial (xulosaviy) statistika.
- kichik guruh asosida umumiy populyatsiya haqida xulosa chiqaradi;
- ehtimollik, ishonch oralig‘i, gipotezalarni sinash usullaridan foydalanadi.

1- jadval

Asosiy tushunchalar:

Tushuncha	Ta’rifi
O‘rtacha qiymat	Ma’lumotlar yig‘indisi ularning soniga bo‘linadi.
Median	Ma’lumotlar o‘rtasidagi qiymat (tartiblangan holatda).
Moda	Eng ko‘p takrorlangan qiymat.
Dispersiya	Ma’lumotlarning o‘rtachadan qancha chetga chiqqanini ko‘rsatadi.
Standart og‘ish	Dispersiyaning ildizi – ma’lumotlar tarqalishini bildiradi.
Korrelyatsiya	Ikki o‘zgaruvchan orasidagi bog‘liqlik darajasini ifodalaydi.

Buxgalteriya hisobi fani — bu tashkilotning moliyaviy faoliyatini tizimli ravishda qayd etish, tasniflash, umumlashtirish va tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi fan hisoblanadi. U asosan korxonaning moliyaviy holati, daromadlari, xarajatlari, aktivlari, majburiyatlari va kapitali haqida to‘liq, aniq va ishonchli ma’lumotlarni shakllantirishga xizmat qiladi [2].

2- jadval

Statistik usullarni qo‘llash sohalari:

Soha	Qo‘llanilishi
Iqtisodiyot	Bozor tahlili, inflyatsiya darajasi, ishsizlik statistikasi
Tibbiyot	Klinik sinovlar, kasalliklar statistikasi
Ta’lim	Talabalar yutuqlari, reytinglar, baholash tizimi

Sotsiologiya	Aholi so‘rovlari, ijtimoiy kayfiyat tahlili
Texnika	Sifat nazorati, ishlab chiqarishdagi og‘ishlarni aniqlash

Asosiy maqsadi tashkilot yoki korxonaning moliyaviy holati haqida manfaatdor tomonlarga (rahbariyat, investorlar, davlat organlari, banklar va boshqalar) aniq, ishonchli va o‘z vaqtida ma’lumot taqdim etish.

Buxgalteriya hisobi fanining asosiy vazifalari [7]:

1. Moliyaviy operatsiyalarni hujjatlashtirish – har bir moliyaviy harakat (savdo, xarid, to‘lov va hokazo) buxgalteriya hujjatlari asosida qayd etiladi;

2. Hisobga olish va tizimlashtirish – barcha moliyaviy ma’lumotlar aniq hisob raqamlarida yuritiladi;

3. Tahlil qilish – korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, samaradorlikni baholash;

4. Hisobot tuzish – buxgalteriya va moliyaviy hisobotlar (balans, foyda va zarar hisobotlari, pul oqimi hisobotlari)ni tayyorlash.

Moliya va moliyaviy menejment fani – bu iqtisodiyot va biznes sohasida muhim fanlar bo‘lib, ular tashkilotlar, korxonalar va shaxslarning moliyaviy resurslarini qanday boshqarishni o‘rganadi.

Moliya – bu pul oqimlari, investitsiyalar, kreditlar, risklar va kapital bozorlarini o‘rganadigan fan. U quyidagi savollarga javob izlaydi:

- pulni qanday topish kerak?
- pulni qanday tejash va ko‘paytirish kerak?
- qayerga investitsiya qilish foydaliroq?
- moliyaviy risklar qanday boshqariladi?

Moliya fani quyidagi sohalarga bo‘linadi:

• shaxsiy moliya (personal finance): odamlarning shaxsiy budjeti, tejash, qarz va investitsiyalari.

• korporativ moliya (corporate finance): korxonalar yoki tashkilotlar moliyasini boshqarish.

• davlat moliyasi (public finance): davlat byudjeti, soliq siyosati, davlat qarzi.

• xalqaro moliya (international finance): turli mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar.

Moliyaviy menejment fani – bu korxonaning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish san’ati va ilmidir. Bu fan asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratadi:

- korxonalar mablag‘larini qanday jalb qilish kerak?
- jalb qilingan mablag‘larni qayerga sarflash kerak?

• qanday qilib foydani oshirish mumkin?

• riskni qanday kamaytirish kerak?

Moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari:

• investitsion qarorlar qabul qilish;

• kapital tuzilmasini rejalashtirish (qarz va o‘z kapitali o‘rtasida balans);

• dividendlarga oid siyosat ishlab chiqish;

• likvidlik va naqd pul oqimini boshqarish.

Soliq va soliq siyosati fani – bu davlatning iqtisodiy faoliyatida soliq tizimi orqali amalga oshiriladigan nazorat va boshqaruv choralari, ularning iqtisodiyotga ta’siri, soliqlarni belgilash, yig’ish va ularni boshqarish bilan bog’liq fan hisoblanadi.

Soliq – bu davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy ravishda olinadigan pul to’lovidir. Soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi va ular orqali [3]:

- davlat xarajatlari (ta’lim, sog’liqni saqlash, mudofaa va boshqalar) moliyalashtiriladi;

- iqtisodiy tenglikni saqlashga harakat qilinadi;
- inflyatsiya, ishsizlik, iqtisodiy o’sishni tartibga solish imkoniyati yaratiladi.

Soliq siyosati – bu davlatning soliqlarni belgilash, ularni yig’ish va ulardan foydalanish borasidagi iqtisodiy va huquqiy choralari majmuidir. Bu siyosat orqali:

- iqtisodiy barqarorlikka erishiladi;
- investitsiyalar rag’batlantiriladi;
- bandlik darajasi oshiriladi;
- daromadlar qayta taqsimlanadi.

soliq va soliq siyosati fanining maqsadi. ushbu fan talabalarga:

- soliq tizimining mohiyatini;
- soliq turlarini va ularning funksiyalarini;
- soliq siyosatining vazifalari va samaradorligini;
- soliq yuki va uning iqtisodiyotga ta’sirini;
- xalqaro soliq amaliyotlarini o’rgatadi.

Bank ishi fani deganda odatda bank muassasasida bajariladigan ishlar yoki xizmatlar tushuniladi. Bu soha moliyaviy xizmatlar bilan bog’liq bo’lib, quyidagi asosiy yo’nalishlarni o’z ichiga oladi:

1. Moliyaviy operatsiyalar:

- pul qo’yish (depozit);
- pul yechish;
- hisob raqamlar ochish va yuritish;
- pul o’tkazmalari (milliy va xalqaro);
- valyuta ayirboshlash.

2. Kreditlash:

- jismoniy va yuridik shaxslarga kreditlar berish;
- ipoteka, avtokredit, iste’mol krediti;
- kredit tarixi va to’lov qobiliyatini tekshirish.

3. To’lov xizmatlari:

- kommunal to’lovlar (gaz, elektr, suv);
- telefon, internet va boshqa xizmatlar uchun to’lovlar;
- plastik karta xizmatlari (visa, mastercard, humo, uzcard).

Iqtisodiy modellashtirish va Iqtisodiy prognozlash – iqtisod fanining ikkita muhim yo’nalishi bo’lib, ular orqali iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq tushunish, tahlil qilish va kelajakdagi holatlarni oldindan baholash mumkin. Quyida ularning har biriga alohida to’xtalamiz:

Iqtisodiy modellashtirish – bu real iqtisodiy jarayon va hodisalarni matematik yoki statistik modellar yordamida ifodalash usulidir. Bu modellar orqali iqtisodiy tizimlarning

qanday ishlashini tushunish, tahlil qilish va turli holatlarda qanday natijalar kutilishi mumkinligini o‘rganish mumkin. Asosiy maqsadlari quyidagilar:

- iqtisodiy hodisalarni tushuntirish (masalan, inflyatsiya sabablari);
- qarorlar qabul qilishda yordam berish;
- turli siyosatlarining (soliq, monetar va h.k.) ta‘sirini baholash;
- nazariyani amaliyotda tekshirish.

Misol tariqasida aholining daromadi oshsa, iste‘mol ham oshadi – bu iste‘mol modeli orqali ifodalanadi:

$$C = a + bY$$

Bu yerda:

- C – iste‘mol;
- Y – daromad;
- a, b – model koeffitsiyentlari.


Iqtisodiy prognozlash fani – bu iqtisodiy ko‘rsatkichlar (masalan, YAIM, inflyatsiya, ishsizlik darajasi)ning kelajakdagi holatini bashorat qilish jarayoni. Prognozlash asosan mavjud tarixiy ma‘lumotlar va statistik usullar asosida amalga oshiriladi.

Asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kelajakdagi iqtisodiy holatni oldindan ko‘rish;
- siyosiy qarorlar uchun asos yaratish;
- xavflarni kamaytirish va strategik rejalashtirish;
- korxonalar va davlat uchun iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqish.

Iqtisodiyot sohalaridagi o‘quv fanlarining integratsiyasi tushunchasini keng ma‘noda tushunish uchun 1- rasmda ko‘rsatilgan “Tarmoq va soha fanlari”, “Global va zamonaviy fanlar” va “Menejment va biznesga oid fanlar” ni ham yuqoridagidek tahlil qilish talab qilinadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari" doirasida fanlar integratsiyasi 2-rasmda ko‘rsatilgandek tizimli yondashuvni qo‘llaganda ancha samara beradi.



2-rasm. Integratsiya turlari

Tizimli yondashuv afzalliklari quyidagilar:

- bilimlar yaxlitlashadi, tushunish osonlashadi;
- talaba mustaqil fikrlay oladi;
- real hayotga mos bilimlar hosil bo‘ladi;
- ko‘nikmalarni bir necha kontekstdan foydalanish mumkin bo‘ladi;
- talabalarda mantiqiy, tanqidiy va tizimli fikrlash shakllanadi;
- bilimlar hayot bilan bog‘lanadi, ularni amaliy qo‘llash osonlashadi;
- fanlararo bog‘liqlik kuchayadi, umumiy savodxonlik oshadi;

- darslar yanada qiziqarli, interaktiv va samarali bo‘ladi.

Maktablar va universitetlarning integratsiyasi - bu o‘rta va oliy ta‘lim o‘rtasidagi uzluksizlikni ta‘minlash maqsadida ta‘lim dasturlari, usullari va maqsadlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Bunga o‘quv dasturlarini birgalikda ishlab chiqish, kasbga yo‘naltirish, shuningdek maktab talabalarini universitet tadbirlari va ilmiy tadbirlarga jalb qilish kiradi. Ushbu yondashuv universitetga maqsadli guruhni shakllantirishga yordam beradi va maktab bitiruvchilarni ma‘lumotli kasb tanlashga va oliy ma‘lumotga muvaffaqiyatli moslashishga tayyorlaydi.

Xulosa

O‘quv fanlarini integratsiyalash – bu nafaqat yangi pedagogik yondashuv, balki ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi kuchli vositadir. U talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlab, bilimlarni uzviy va hayotga yaqin tarzda egallashiga imkon yaratadi. Shu boisdan, har bir pedagog zamonaviy integratsiyalashgan ta‘lim metodlarini chuqur o‘rganishi va amaliyotga joriy etishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik jarayonga qo‘shilish orqali tadqiqotchilar ilgari bir-biridan farq qiladigan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq rivojlanish jarayonining jihatlaridan birini tushunadilar. Bu jarayon allaqachon o‘rnatilgan tizim doirasida ham, yangi tizim doirasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Gulbayev N.A., Abduraimov J.G‘., O‘rishov A.N. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining ta‘limni innovatsion boshqarishdagi o‘rni. “Yangi O‘zbekistonda islohotlarni amalga oshirishda zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy maqolalar to‘plami. 27-29 oktyabr. 2021 yil. Andijon.

3. Gulbayev N.A. O‘quv jarayoni samaradorligini oshirish to‘g‘risida. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti ilmiy – metodik jurnali. № 2 – son. 2025 y.

4. Dusbayev I.R. “XXI asr – fanlararo integratsiya asri”. International scientific and practical conference "science, education and innovation: problems, solutions and prospects" may 17-18, 2024.

5. Maxmudov A. Axborot-ta‘lim muhitida bakalavriat talabalarining raqamli madaniyatini shakllantirish. “Ta‘lim, fan va innovatsiya” Ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent, 2023 yil. 6-son. 33-36 b.

6. Hasanboyeva D.X. – Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, Toshkent, 2021.

7. Vygotsky L.S. – Pedagogik psixologiya, Moskva, 2003.